



Tadbirkor va bojxona o'rtasidagi nizolar: muqobil yondashuv zaruriyati

Raximberdiyev Nurullo Yorqinjon o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

“Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti”

“Advokatlik faoliyati” yo'nalishi magistranti

Hozirgi kunda hududlarda bojxona organlari bilan bog'liq ishlar soni kundan-kunga oshib, ularni hal qilish vaqti esa uzayib bormoqda. Bu esa bojxona organlari faoliyati samaradorligiga va respublika iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilmoqda. Shuningdek, yuqoridagi ko'rsatkichlar bojxona organlariga nisbatan ishonchsizlikning oshishiga, bojxona organlari va ularning mansabdor shaxslari qarorlarining bekor bo'lishiga, davlat byudjetiga undirilishi kerak bo'lgan to'lovlarning undirilmay qolishi va boshqa bir necha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” farmonining ikkinchi ustuvor yo'nalishi, yani “Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish”ning asosiy maqsadlaridan biri ya'ni **15-maqсад**: “Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish”da nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish vazifalari belgilab berilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda nizolarni muqobil hal qilish sohasida jadal islohotlar olib borilayotganligi, ushbu sohani rivojlantirish “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ga kiritilganligi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tezlashtirish va investorlarni jalb



qilish, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar va huquqlarini tiklashning tezkor usullarini yaratish, xalqaro normalarga milliy qonunchilikni uyg'unlashtirish, bojxona to'lovlarini samarali undirish uchun nizolarni muqobil hal qilish sohasini rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi kunda sudlarda bojxona organi ishtirokidagi ishlarning soni ortgan lekin samaradorlik qoniqarli axvolda emas. Shuningdek sudlardagi bojxona organi ishtirokidagi ishlar oylab, ba'zida esa yillab cho'zilib ketmoqda, bu esa o'z navbatida TIF subyektlari va bojxona organlari faoliyatiga salbiy ta'sir qilmoqda hamda O'zbekistonga yirik investorlarni jalb qilishda to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Yana bir dolzarb muammo shundaki, hozirda bojxona organlari tarkibida nizolarni muqobil hal qilishning mexanizmlarini yaratilishiga qaramasdan, ularda deyarli ishlar ko'rib chiqilmayabdi. Bu esa bojxona nizolarini sudgacha hal qilish mexanizmlari yaxshi ishlamayotganidan darak beradi.

Misol uchun Bojxona qo'mitasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4754-sonli Qarori asosida tashkil etilgan Apellatsiya komissiyasi oxirgi ikki yil ichida atigi 16 shikoyat bo'yicha ish yuritgan va ularning 15 tasida bojxona organlari foydasiga qaror qabul qilingan. Bu Komissiya nafaqat ma'muriy nizolarni, balki fuqarolik huquqiy hamda mehnat nizolarini ham ko'rish vakolatiga ega ekanligi sababli, nizolarning shu Komissiya orqali hal qilinishi bojxona organlarini fuqarolik va ma'muriy sudlardagi ish hajmini keskin kamaytirish imkonini beradi.

O'tkan yil davomida fuqarolik hamda iqtisodiy sudlarda jami 200 ga yaqin bojxona organlari hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi nizoli ishlar ko'rib chiqilgan bo'lsada, ularning qanchasi kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv orqali tugatilganligi ya'ni nizoni muqobil hal qilinganligi bo'yicha ma'lumot yoki statistika mavjud emas. Bundan kelib chiqadiki, bojxona organlarida “Mediatsiya to'g'risida”gi Qonunning 18-moddasi hamda Iqtisodiy va Fuqarolik protsessual kodekslarida berilgan nizolarni muqobil hal qilish usullari to'liq ishlamayabdi.



Biznes bo'yicha xalqaro reytinglarni tuzuvchi tashkilotlarning davlatlar huquq tizimlariga qo'ygan asosiy talablaridan biri bu - tadbirkorlar bilan bevosita ishlaydigan davlat organlari faoliyatida nizolarni muqobil hal qilish usullarining mavjudligi va qanchalik samara berayotgani hisoblanadi. Bojxona organlarida nizolarni muqobil hal qilish usullari yaxshi ishlamayotgani O'zbekistonning xalqaro reytinglarda yuqoriga ko'tarilishiga bir to'siq bo'lmoqda.

Misol uchun, 2020-yil yakuni bo'yicha xalqaro "Doing business" reytingida O'zbekiston 200 ta davlat ichidan 69-o'rinni egalladi. O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligi shunday xalqaro reytinglarga bog'liq bo'lganligi sababli, bu investorlarni yurtimizga jalb qilishda yirik kamchiliklardan bir kelmoqda. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki 2019-yil yuqoridagi reytingda O'zbekiston 200 davlat ichida 76-o'rinda edi.

Bojxona organlari yuridik bo'lim/shu'balariga har bir nizoli ish bo'yicha nizoni muqobil(sudgacha) hal qilish chorasini ko'rish majburiyati yukatilganiga qaramasdan, 2024-yildagi jami nizoli ishlarga nisobatan faqatgina 30 foiz holatda nizolarni muqobil hal qilish chorasi ko'rilgan. Qolganlarida esa ish bevosita sudlarga oshirilgan.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi chora-tadbirlarni amalga ishirish zarurati yuzaga kelmoqda:

- 1) Bojxona sohasida yuzaga keladigan ma'lum bir toifadagi(asosan TIF TN, bojxona ekspertizasi, litsenziya va guvohnoma berish sohasidagi) nizolar uchun majburiy tartibda yuqori turuvchi bojxona organiga yoki Apellatsiya komissiya/kengashiga shikoyat berish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi;
- 2) "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga "ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi" so'zlarini kiritish kerak va mediatsiyani qo'llash mumkin bo'lgan ma'muriy huquqiy nizolar doirasini ajratib olish lozim;
- 3) Bojxona organlari "Yuridik bo'lim"larida xizmat olib boruvchi xodimlarni mediatorlarni tayyorlash kurslarida o'qitish kerak va mediatorlik faoliyati tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaganligi sababli bu faoliyat turi bilan ushbu xodimlarga



- bojxona(iqtisodiy) nizolarga oid ishlarda mediator sifatida qatnashishga ruxsat berish lozim;
- 4) Hozirgi kundagi bojxona organlarida mavjud nizolarni muqobil hal qilish usullari haqida jismoniy va yuridik shaxslarni xabardor qilish va ushbu usullardan foydalanish afzalliklari to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish lozim. Shuningdek, bojxona organlari xodimlarining o'zlariga ham bu usularni afzalliklarini tushuntirish lozim;
- 5) Bojxona organlarida nizolarni muqobil hal qilish sohasida yagona, umumiy hujjat mavjud emasligi sababli, ushbu sohani tartibga solishni osonlashtirish maqsadida yagona hujjat ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi;
- 6) Bojxona organlarining boshqa davlat organlari(bevosita Adliya organlari va Soliq organlari) bilan nizolarni muqobil hal qilsih sohasida hamkorlik va tajriba almashishni kuchaytirish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bojxona organlarida nizolarni muqobil hal qilish sohasining rivojlanmasligi bojxona organlarining sudlarda behuda vaqt va xarajatlarining sarflanishiga, bojxona to'lovlarini to'liq undirilmasligiga, sudlardagi bojxona organlarini ish samaradorligini tushib ketishiga va ishlar sonini ortishiga, bojxona organlari va ularning mansabdor shaxslari qarorlarining bekor bo'lishi va bu orqali bojxona organiga ishonchsizlikning aholi o'rtasida oshishiga sabab bo'ladi.